



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC

SOLUTIONS

ONLAYN TA'LIMNING AFZALLIKLARI
VA KAMCHILIKLARI**Turg'unboyeva Arofatxon Otabek qizi***O'zbekiston Davlat Juhon tillari Universitetining 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada onlayn ta'larning afzalliklari va kamchiliklari haqida ma'lumotlar keltirildi. Masofaviy ta'larning qulayliklari, texnologik resurslarni samarali qo'llanilishi hamda inson salomatligiga zarari, ijtimoiy aloqani kamayishi kabi ta'sirlari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: Texnologik resurslar, masofaviy ta'lim, elektron darsliklar, internet, ta'lim.

Abstract: This article discusses the advantages of online education and information about the shortcomings was given. Convenience of distance education, efficient use of technological resources, and effects on human health, such as reduction of social contact, are also covered.

Key words: Technological resources, distance education, electronic textbooks, internet, education.

Аннотация: В данной статье рассмотрены преимущества онлайн-обучения и дана информация о недостатках. Также рассматриваются удобство дистанционного образования, эффективное использование технологических ресурсов и воздействие на здоровье человека, такое как сокращение социальных контактов.

Ключевые слова: Технологические ресурсы, дистанционное образование, электронные учебники, интернет, образование.

Hozirgi zamонавиј дуньода масофавиј та'лим тизими ривожланаб боряпти. Чунки кундаклик hayotda ko'pchilik bandligi yoki qulayligi tufayli onlayn ta'lim tarafdrorlari juda ko'p va masofaviy ta'larning paydo bo'lishi masofaviy ta'lim texnologiyalarining rivojiga olib keldi. Keling, masofaviy ta'larning qulayliklari, ya'ni afzalliklari haqida ma'lumotlar keltirsak.

Afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Moslashuvchanlik: O'quvchilar ham oilali insonlar ham vaqt o'ziga qulay bo'lgan paytda o'qishlari mumkin. Ish, oila va boshqa majburiyatlar bilan masofaviy ta'limni birga olib borish osonroq hisoblanadi.
- Xarajatlarning kamligi: Onlayn ta'larning an'anaviy ta'lim bilan solishtirganda, kurs narxlari arzonroq bo'ladi hamda turar joy, transport yoki o'quv materiallarining ham xarajatlari kamroq bo'ladi.
- Keng tanlov imkoniyati: Dunyodagi eng nufuzli universitetlar yoki kuchli mutaxassislardan bilim olish imkoniyati katta.

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- Qulay o'quv muhit: Har bir inson o'zi istagan eng qulay joy va muhitda ta'lif olishi mumkin. Shovqin, uzoq yo'l bosish yoki kech qolish kabi muammolar o'quvchilarga ta'sir qilmaydi.
- Interaktiv va innovatsion metodlar: Video darslar, testlar, amaliy topshiriqlar kabi turli usullar orqali o'rganish jarayoni juda ham qiziqarli bo'ladi.
- Yangi texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasi : Onlayn ta'lif jarayonida turli platformalar, dasturlar va vositalardan foydalanish o'rgatiladi, bu esa zamonaviy mehnat bozorida juda foydali bo'lishi mumkin.
- Ijtimoiy tarmoqlar va jamoalar orqali tarmoq yaratish: Turli mamlakatlardan bo'lgan mutaxassislar yoki o'quvchilar bilan aloqa o'rnatsa bo'ladi yoki bilim almashish, tajriba ortirish, kelajakda hamkorlik qilis imkoniyatlarini taqdim etadi.

Bu kabi afzalliklar insonlarning hayotini yanada osonlashtiradi va hayotda o'z o'rnnini topishga yordam beradi. "Shirinlikning ham acchig'i bor", -deganlaridek, onlayn ta'limning ham o'ziga yarasha kamchiliklari mavjud. Ular:

- O'quvchiga e'tiborning kamligi. Demak dars jarayoni internet orqali bo'lganligi uchun har doim ham auditoriyaning e'tiborini ushlab qolishning imkonи bo'lmaydi va bu o'z navbatida talabalar bilan individual ishlash imkoniyatini yaxshigina kamaytiradi.
- Texnik nosozliklar. Telefon yoki kompyuter dasturiy ta'minotida kuzatiladigan nosozliklar, internet tezligining pastligi yoki chiroq o'chib qolishi. Bunday nosozliklar o'zingizga kerakli va o'zingiz qiziqqan mavzuni o'rganyotganingizda sodir bo'ladi ko'proq. Darslardan qolib ketmaslik uchun bunday vaziyatlarning oldini olib qo'ygan yaxshi.
- Qiziqarli bo'limgan darslar. Statsitika ma'lumotlariga qaraganda 5% insonlar o'rganish uchun boshlagan onlayn kurslarini oxirigacha tugatishar ekan. Bunga sabab esa darslarda to'g'ridan to'g'ri ustoz va o'quvchining ikki tomonlama aloqasi bo'lmasligida. Odatda onlayn darslarda, faqat ustoz gapiradi, o'quvchilar esa ko'proq tinglovchi bo'lib qoladi, bunga sabab ustozning darsga qiziqtira olmasligidadir. Buning ustiga onlayn darslarda o'quvchilar bir biri bilan muloqot qilib, tadqiqot o'tkazadigan qiziqarli o'yinlarni tashkil qilish deyarli imkonsiz.

Onlayn ta'limning inson salomatligiga ham yomon ta'sirlari mavjud. Misol uchun, ko'z salomatligi, harakatsizlik, ruhiy salomatlik yoki uyqu buzilishi kabi omillar sog'lig'imiz yomonlashishiga olib keladi. Buni oldini olish uchun ko'z himoyasi, ya'ni telefon yoki kompyuterga qarayotgan vaqtida to'xtab, 20 daqiqa boshqa joy qarab turish tavsiya etiladi. Jismoniy faollik ham juda muhim, har soatda kamida 10-15 daqiqa harkatlanib turish lozim. Yana bir tavsiya bunday muammolarni oldini olishda tog'ri holatda o'tirish, ya'ni umurtqa va bo'yin mushaklarini qo'llab-quvvatlash uchun eergonomik o'rindiq hamda stol tanlashdir. Onlayn ta'limni samarali va sog'lom tarzda tashkil qilish uchun bu omillarga e'tibor berish muhim. Jahon Sog'liqni Saqliqni Tashkilot ham xabar berishicha, sog'liqni saqlash - har bir insonning irqi, dini, siyosiy qarashlaridan qat'iy nazar, eng zaruriy huquqlardan biridir. Onlayn ta'lim ijtimoiy

MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

aloqalarning kamayishiga ham olib kelishi mumkin, chunki u an'anaviy sinf xonasidagi jonli muloqot o'rnini bosa olmaydi. Chunki, an'anaviy ta'limda talabalar o'qituvchilar va tengdoshlar bilan yuzma-yuz muloqot qiladi. Onlayn o'qish esa insonlar orasidagi tabiiy suhbat va ijtimoiy muhitdan ajratib qo'yishi mumkin. Darslarda guruqli loyihalar va muhokamalar kamroq bo'lishi ham mumkin, bu esa ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini pasaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [uzmarkaz.uzhttps://uzmarkaz.uzMasofaviy ta'limning afzalliklari va qulayliklari://zenodo.orgSiz tez-tez borgansizONLAYN](https://uzmarkaz.uz/Masofaviy_ta'limning_afzalliklari_va_qulayliklari://zenodo.orgSiz_tez-tez_borgansizONLAYN) TA'LIMNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI.
2. [intereuroconf.comhttps://www.intereuroconf.compdfonline](https://www.intereuroconf.comhttps://www.intereuroconf.compdfonline) va offline ta'limining afzalliklari.
3. [КиберЛенинкаhttps://cyberleninka.ruPEDAGOGIKA UNIVERSITETIDA MASOFAVIY TA'LIMNING YUTUQ ...](https://cyberleninka.ruPEDAGOGIKA_UNIVERSITETIDA_MASOFAVIY_TA'LIMNING_YUTUQ ...)
4. [Xulkar Safarova.\(2024\). TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW \(TSUL\): The role of a person's right to health in the SYSTEM of social rights. Journal of Society and Innovations, 74-83](#)
- 5.[uzmarkaz.uzhttps://uzmarkaz.uzMasofaviy ta'limning afzalliklari va qulayliklari.](https://uzmarkaz.uzhttps://uzmarkaz.uzMasofaviy_ta'limning_afzalliklari_va_qulayliklari)